

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori

X.B. Yunusov

2024 yil “02” 08



MAXSUS FANLARNI O'QITISH METODIKASI
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 700000-Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohasi

Ta'lim sohasi: 710000- Muhandislik ishi

Ta'lim

mutaxassisliklari: 70710201 – Biotexnologiya

Samarqand -2024

Fan/modul kodi MFO'M1104		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 4	
Fan modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	60		60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - mutaxassislikka mos fanlarni o'qitishning mazmuni, maxsus fanlarni o'qitish shakli, metod va vositalari, maxsus fanlarni o'qitishda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash tizimi, maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – magistrantlarni maxsus fanlarni o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; metodik jihatdan pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash; pedagogik fanlarning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarni keng doirada qo'llay olishga yo'naltirish; pedagogik faoliyatini amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi va ularning o'ziga xosliklari. Maxsus fanni, o'qitish metodikasi, o'ziga xosliklari, maxsus fanlarni o'qitish jarayoni, o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari. Maxsus fanni o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari. O'qitish metodikasi tushunchasi. Mutaxassis kadrlarga qo'yilgan talablar.</p> <p>2-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish yaxlit tizim sifatida. Maxsus fanlarni o'qitishda pedagogik jarayon, o'quv jarayoni, tizimli yondashuv tushunchalari. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda tizimli yondashuv. Maxsus fanlarni o'qitishda o'qituvchi shaxsi va uning pedagogik kompetentligi. Ta'lim berish (didaktika)ning asosiy tamoyillari. Bilim. Ko'nikma. Malaka.</p> <p>3-mavzu. Maxsus fan o'qituvchisining o'quv-me'yoriy hujjatlari. Standart, davlat ta'lim standartlari, ta'lim standartlarining maqsadi, ta'lim standartlarining vazifalari, tayanch o'quv rejalari, texnologik xarita,</p>				

namunaviy o'quv dasturi, ishchi o'quv dasturi, kalendar reja, o'quv-uslubiy majmua. O'quv dasturlariga qo'yiladigan talablar. Dars rejasi. Darslik. O'quv qo'llanma. Elektron darslik

4-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitish mazmuni. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining ahamiyati. Maxsus fanlarni o'qitish mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar maxsus fanlar, o'qitish mazmuni, me'yoriy hujjatlar, o'qitish metodlari va vositalari. Didaktika va metodikaning maqsadi. Maxsus fanlarni o'qitish metod va vositalari, metodlarning o'quv-tarbiya jarayonidagi vazifalari. O'qitishning asosiy qoidalari

5-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishning shakl, metod va vositalari. Ma'ruza, ma'ruzaning funksiyalari, kirish ma'ruzasi, mavzu bo'yicha ma'ruza, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi ma'ruza, ma'ruzada real faktlar, an'anaviy ma'ruza o'qish, muammoli ma'ruza o'qish, jadallashgan ma'ruza o'qish, ma'ruza matni, seminar va amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi.

6-mavzu. O'qitish metodlarini mutaxassislik fanlaridan dars o'tishga moslashtirish (kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish misolida). O'qitish metodlarini mutaxassislik fanlaridan dars o'tishga moslashtirish (kichik guruhlariga bo'lib dars o'tish misolida). Motivatsiya. Talabalarga maqsadga yo'naltirilgan savollar asosida dars o'tishning tutgan o'rni. Savollar va ularni dars jarayonida to'g'ri qo'ya bilishning zarurati. Fanni o'rganishda mutaxassislik fanlarining tutgan o'rni.

7-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishning auditoriyadan tashqari shakllari. Mustaqil ta'limning mohiyati, tashkil etish metodikasi, shakllari, kurs ishi(loyihasi) tayyorlash metodikasi. Mustaqil ta'limda qo'llaniladigan eng muhim metodlar. Talabani mustaqil ishidan maqsad va vazifalari. Mustaqil ishlarini tashkil etish o'ziga xos jihatlari. Mustaqil ishlash va izlanishning asosiy shakllari. Kurs ishidan maqsadi va tayorlash metodikasi. Pedagogik kvalimetriya.

8-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.

Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining ahamiyati. Texnik vositalardan dars jarayonida foydalanish ahamiyati. Texnik vositalardan o'quv jarayonida foydalanishning afzalligi va kamchiliklari. Darsda videoproektordan foydalanishning ijobiy tomonlari. Multimediali vositalar.

9-mavzu. Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati. Ta'lim-tarbiya jamiyat taraqqiyotining asosi. Xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlari. Kredit-modul tizimining afzallik va muammoli jihatlari. Kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini rejalashtirish, tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovasion metodlari. O'qituvchining pedagogik mahorati.

10-mavzu. Mutaxassislik fanlari va dars o'tishda ularning xususiyatlarini hisobga olish. Pedagogning maxsus fanlarni o'qitishda darsni tayyorlash va o'tkazishdagi pedagogik mahorati. Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Mutaxassislik fanlari va dars o'tishda ularning xususiyatlarini hisobga olish. Mutaxassislik fanlarining amaliyot bilan bog'liqligi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi va ularning o'ziga xosliklari.
2. Maxsus fanlarni o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari
3. Maxsus fanlarni o'qitish yaxlit tizim sifatida.
4. Maxsus fanlarni o'qitishda o'qituvchi shaxsi va uning pedagogik kompetentligi.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining ahamiyati.
6. Standart, davlat ta'lim standartlari, ta'lim standartlarining maqsadi, ta'lim standartlarining vazifalari.
7. Tayanch o'quv rejalari.
8. Namunaviy va ishchi o'quv dasturlari.
9. Fanning o'quv-uslubiy majmuasi.
10. Maxsus fanlarni o'qitish mazmuni.
11. Maxsus fanlarni o'qitishning shakllari.
12. Maxsus fanlarni o'qitishning metodlari
13. Maxsus fanlarni o'qitishning vositalari.
14. O'qitish metodlarini mutaxassislik fanlaridan dars o'tishga moslashtirish.
15. Dars o'tish metodlarini tanlash mezonlari.
16. Maxsus fanlarni o'qitishning auditoriyadan tashqari shakllari.
17. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish.
18. Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish
19. Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.
20. Mutaxassislik fanlari va dars o'tishda ularning xususiyatlarini

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining 70710201 – Biotexnologiya mutaxassisligi magistrleri uchun "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanidan ishlab chiqilgan fanning o'quv dasturiga

TAQRIZ

Oliy Ta'limning Davlat ta'lim standartiga ko'ra yuqorida ko'rsatilgan mutaxassisliklar magistrleri uchun o'qitiladigan "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanining o'quv dasturi, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi va ularning o'ziga xosliklari, maxsusfanlarni o'qitish tizim sifatida, maxsusfan o'qituvchisining o'quv-me'yoriy hujjatlari, maxsusfanlarni o'qitish mazmuni, maxsusfanlarni o'qitishning shakl, metod va vositalari, maxsus fanlarni o'qitishning auditoriyadan tashqari shakllari, maxsusfanlarni o'qitish jarayonida axborot va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni o'z ichiga olgan bo'limlarni o'zlashtiradi.

Ta'lim maqsadi davr bilan, ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liq. Ushbu dasturga fanlarning o'qitish metodikasi, o'ziga xosliklari, maxsus fanlarni o'qitish jarayoni, o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari, maxsus fanlarni o'qitishdagi pedagogik jarayon, o'quv jarayoni, tizimli yondashuv tushunchalari, mutaxassislik fanlarini o'qitishda tizimli yondashuv, maxsus fanlarni o'qitishda o'qituvchi shaxsi va uning metodik kompetentligi haqida bilimga ega bo'lishlari ilmiy asoslangan bo'limlar kiritilgan.

Ushbu fanning vazifasi magistrantlarni maxsus fanlarni o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish, metodik jihatdan pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko'nikmalarni egallash, pedagogik fanlarning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalarni keng doirada qo'llay olishga yo'naltirish; pedagogik faoliyatini amalga oshirishda ijodiy va metodik savodxonlikka tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Fanning oquv dasturi bilan tanishganda uning mazkur sohalar mutaxassislari uchun tushunarli va bugungu kunda ta'lim sohasida hal qilinishi zarur bo'lgan muammolarni yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, fan dasturi Davlat ta'lim standarti talablariga mos ravishda shakllantirilgan bo'lib unda rejalashtirilgan bilimlarni talaba tomonidan o'zlashtirilishi shakllantirilayotgan mutaxassislarni ishlab chiqarishda mustaqil ishlashga tayyorligini, ta'lim jarayonidagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Fanning o'quv dasturining yuqorida keltirib o'tilgan ijobiy tomonlarini inobatga olgan holda ma'qullayman va uni tasdiqlashga tavsiya etaman.

Sh.Z. Taylanova

imkoniy tasdiqlayman

O'zbekiston - Finlandiya
pedagogika instituti "Maktabgacha
ta'lim pedagogikasi va
psixologiyasi" kafedrası
prof. professor.



Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining 70710201 - Biotexnologiya mutaxassisligi magistratlari uchun "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanidan ishlab chiqilgan fanning o'quv dasturiga

TAQRIZ

Ta'limdagi yangilanish asosan, davlat ta'lim standarti orqali ta'lim jarayonidagi talabning o'z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, o'z shaxsiga ongli munosabatda bo'lib ilmiy faoliyatda o'zini rivojlantira oladigan faol, mustaqil shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.

Ushbu fan dasturida davlat ta'lim standarti, uning maqsadi, vazifalari, tayanch o'quv rejalari, texnologik xarita, namunaviy o'quv dasturi, ishchi o'quv dasturi, kalendar reja, o'quv-uslubiy majmua, maxsus fanlarni o'qitish mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjadar maxsus fanlar, o'qitish mazmuni, me'yoriy hujjatlar, o'qitish metodlari va vositalari ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, dastur ma'ruza, ma'ruzaning funksiyalari, turlari, ma'ruzada real faktlar, an'anaviy ma'ruza o'qish, muammoli ma'ruza o'qish, jadallashgan ma'ruza o'qish, ma'ruza matni, seminar va amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi bo'yicha talabaga ma'lumotlar beradi va maxsus fanlarni o'qitishning auditoriyadan tashqari shakllari, mustaqil ta'limning mohiyati, tashkil etish metodikasi, shakllari, kurs ishi (loyihasi) tayyorlash metodikasi, maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Dasturda talaba maxsus fanlarning didaktik ta'minotini ishlab chiqish, mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash, maxsus fanlarning o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish, maxsus o'qitish jarayonida reyting tizimini qo'llash, maxsus fanlarni o'qitishda mashg'ulotlarning rejasini tuzish va ma'ruza matnini tayyorlash, ochiq mashg'ulotlarni o'tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirish, yil, semestr bo'yicha o'quv ishlarining tashkil etishni rejalashtirish, auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish, o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalarni qo'llash bo'yicha xulosa qilish kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerakligi aytib o'tilgan.


Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib fanning o'quv dasturini ijobiy baholayman va uni tasdiqlashga tavsiya etaman.

Samarqand davlat chet tillar instituti

magistratura bo'limi boshlig'i,

psixologiya fanlari

doktori (DSc), professor



Saidov Azamat Ismoilovich

**Saidov A. NING IMZOSINI
TASDIQLAYMAN
SHARHCHI KADRLAR**

Saidov

hisobga olish.

Amaliy mashg'ulotlar zarur ilmiy adabiyotlar, o'quv uslubiy majmualar bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III.II. Laboratoriya mashg'ulotlari o'quv rejada ushbu modulda nazarda tutilmagan.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Maxsus fanlarni o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida;
2. Maxsus fanlarni o'qitish fanlarini mazmunini yorituvchi me'yoriy hujjatlar;
3. Maxsus fanlarni o'qitishda foydalanidigan metodlar;
4. Maxsus fanlarni o'qitish shakllaridan foydalanish texnologiyasi;
5. Maxsus fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish;
6. Maxsus fanlarni masofadan o'qitish metodini qo'llashning ob'ektiv asoslari, afzalliklari va muammolari
7. Maxsus fanlarni o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;
8. Ma'ruza, uning o'quv jarayonida tutgan o'rni va unga qo'yiladigan asosiy talablar
9. O'qitishning muammoli-izlanish metodlari va ularni qo'llab ma'ruza o'qish.
10. Seminar darsi va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni.
11. Maxsus fanlarni o'rganishda tadqiqot va munozara metodi
12. Maxsus fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar;
13. Pedagogik ijodkorlik ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish omili;
14. Maxsus fanlarni o'qitishda adabiyotlardan foydalanish;
15. Maxsus fanlarni o'qitishda ilmiy-nazariy manbalardan foydalanish.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmoqlaridan foydalanib referat va uning taqdimoti, dars ishlanmalarini tayyorlashi, darslarni tahlil qilishi, xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanishi, keys-stadi, pedagogik vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqishi tavsiya etiladi.

V. Fan bo'yicha o'quv rejada kurs ishi rejalashtirilmagan.

3.

VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

Talaba bilishi kerak:

- maxsus fanlarni o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari, maxsus fanlar ta'lim mazmunini tanlash mezonlari, maxsus fanlarni o'qitish metod va vositalari, maxsus fanlarni o'qitishning tashkiliy

	<p>shakllari, maxsus fanlarni o'qitishning axborot texnologiyalari, maxsus fanlarni o'qitish texnologiyalari, mutaxassislik fan o'qituvchisining o'quv me'yoriy hujjatlari va metodik ishlari, ularni rejalashtirish, tashkil etish va tayyorlash metodikasi haqida haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i></p> <ul style="list-style-type: none"> maxsus fanlarni o'qitish jarayonning tuzilishi, qonuniyat va tamoyillari; maxsus fanlarni o'qitish jarayonida professor-o'qituvchining vazifalari va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish, talabalarning diqqatini jalb va mashg'ulot samaradorligini oshirish metodlari va vositalari, maxsus fanlarni o'qitish shakllari (ma'ruza, seminar, amaliy, laboratoriya, mustaqil ta'lim, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, o'quv amaliyoti, malakaviy amaliyoti)ni tashkil etish va o'tkazish metodikasini, maxsus fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish turlari, shakl va metodlarini, maxsus fanlarni o'qitishning multimedia va interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llashni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i> maxsus fanlarning didaktik ta'minotini ishlab chiqish, mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash, maxsus fanlarning o'quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish, maxsus o'qitish jarayonida reyting tizimini qo'llash, maxsus fanlarni o'qitishda mashg'ulotlarning rejasini tuzish va ma'ruza matnini tayyorlash; ochiq mashg'ulotlarni o'tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirish, yil, semestr bo'yicha o'quv ishlarining tashkil etishini rejalashtirish, auditoriyadan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish, o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari va interfaol texnologiyalarni qo'llash bo'yicha xulosa qilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)</i>
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoat bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.: Fan va texnologiya.2007.</p>

	<p>2. Omonov H.T., Xattabov M.B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. "Iqtisodiyot-moliya" nashriyoti. Toshkent. 2016 yil</p> <p>3. Omonov X, Xo'jayev N, Madyareva S, Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T.:Iqtisod-moliya, 2009</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <p>4. http://lex.uz/docs/-5013007. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.</p> <p>5. http://lex.uz/docs/-5705038. "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida.</p> <p>6. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- T.: Fan 2006</p> <p>9. Toxtaxodjaeva M., Nishonova S., Hasanboev J., Madyarov S., Kaldibekova A. va boshq. Pedagogika.-T.: Moliya 2008</p> <p>10. Avliyokulov N.H., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar.-T.:Fan va texnologiya 2008.</p> <p>11. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat.- T.: Iqtisod-moliya, 2011</p> <p>Axborot manbalari</p> <p>12. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portal.</p> <p>13. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi</p> <p>14. www.Ziyonet.uz.</p> <p>15. www.sea@mail.net21.ru</p> <p>16. www.veterinary@actavis.ru</p>
7.	<p>Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "12"-sonli bayoni bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>N.N.Narziyeva – SamDVMChBU, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport" kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>1. A.I.Saidov – SamDChTI, Magistratura bo'limi boshlig'i, p.f.d., professor</p> <p>2. Sh.Z.Taylanova – O 'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori, p.f.d.</p>